

ERKIN VOHIDOV SHE'RLARIDA AN'ANA VA O'ZIGA XOSLIK

Nizomiddinov Afzaldin Arabboy o'g'li

ADU Adabiyotshunoslik mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Iqtidorli shoir – Yaratganning millatga yuborgan sovg'asi. Shuning uchun adiblar o'zlari mansub millatga yashashni, poklikni, bir-biriga yaxshilik qilishni, Vatanni va xalqni sevishni o'rgatadi. Shoirimiz: “Men ijodiy mehnatni faol jamoat ishlari bilan qo'shib olib borishdek sharaflı vazifa yukini doimo yelkamda his qilaman.

Kalit so'zlar: *mumtoz she'riyat, qasida, g'azal, muxammas, doston, voiz, ruboiy, devon, qofiya, bayt.*

АННОТАЦИЯ

Одаренный поэт – дар, посланный Творцом народу. Поэтому мудрецы учат народ, к которому они принадлежат, жить, быть чистыми, делать добро друг другу, любить Родину и народ. Наш поэт сказал: "Я всегда чувствую на своих плечах такую почетную обязанность, как совмещение творческого труда с активной общественной деятельностью.

Ключевые слова: *классическая поэзия, касида, Газель, мухаммас, эпос, Екклесиаст, рубаи, Девон, рифма, байт.*

ABSTRACT

A gifted poet is a gift sent by the Creator to the people. Therefore, the sages teach the people to which they belong, to live, to be clean, to do good to each other, to love the Motherland and the people. Our poet said: "I always feel on my shoulders such an honorable duty as combining creative work with active social activity.

Keywords: *classical poetry, kasida, Gazelle, Muhammad, epic, Ecclesiastes, rubai, Devon, rhyme, byte.*

KIRISH

“Yoshlik devoni”ni bezab turgan o'zining keng ko'lamli tarixiyliги, ijtimoiyligi bilan boshqa asarlaridan ajralib turuvchi asar “O'zbekim” qasidasi edi.

Mumtoz she'riyatimizda ko'plab qasidalar yozilganligi ma'lum. XX asrda bu janrga qo'l urilmadi. Xuddi g'azalni bir chetga surib qo'yishga harakat qilgandek, qasida janri ham nari surib qo'yilgan edi. Erkin Vohidov mumtoz shoirlarimizning an'alarini davom ettirish va dilidagi gaplarni baralla aytib olish, millatini boshiga ko'tarish maqsadida “O'zbekim” qasidasini yozdi. Qasida avval jurnalda e'lon

qilindi, so'ng kitobiga kiritildi. Erkin Vohidov shuhratini "O'zbekim" o'sha yillarda O'zbekistonga, o'zbeklar yashaydigan qo'shni Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmanistonga, keyinchalik qardosh turkiylarimizning Ozarbayjon, Turkiya kabi o'lkalarigacha yetib borgan. Hatto Amerikadagi Turkistonliklar jamiyatidagi minglab vatandoshlarimiz ham bu qasidani yod o'qishgani, bayramlarda qo'shiq qilib aytishgani ma'lum.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Erkin Vohidov "O'zbekim", sen ham tenglar ichida tengsan, dunyo xalqlar orasida ko'kragingni ko'tarib yurishga deb quyidagi misrani yozdi:

*Tarixingdir ming asrlar ichra pinhon o'zbekim,
Senga tengdosh Pomir-u oqsoch Tiyonshon o'zbekim.
So'ylasin Afrosiyob-u, so'ylasin O'rxun xati,
Ko'hna tarix shodasida bitta marjon, o'zbekim...*

Va bunday xalq yorug' olamda "tenglar ichra teng bo'lishiga xaqli", deya ta'kidladi. Rim qaysari va Chingiz-u Botular bosqiniga ko'ksini qalqon qilgan xalqimizni ulug'larkan, shoir ishg'ol ostidagi vatanning fojiali manzarasini shunday chizadi:

*Yog'di to'rt yondin asrlar boshingga tiyri kamon,
Umri qurbon, mulki toroj, yurti vayron, o'zbekim.
Davr zulmiga va lekin bir umr bosh egmading,
Sen – Muqanna, sarbador – sen, erksevar qon, o'zbekim...*

Bu qasidada erksevarlik ramzi o'laroq tilga olingan Muqanna, sarbadorlar haqida keyinchalik Muhammad Alining romani, Azim Suyunning dramasi, Mirzapo'lat Toshpo'latovning qissasi, ko'plab she'rlar yaratilganida ham bu satrlarning ta'siri bor, albatta. Muallif dunyoga Beruniy, Xorazmiy, Farobiy, Ulug'bek kabi jahonshumul olimlarni, "she'riyat mulkida shoh-u sulton" Navoiyni, Bobur-u Mashrablarni tuxfa etgan xalqning achinarli ahvolini (Maariy "orif inson o'z yurtida g'arib-u g'urbatdadir, yaqinlari orasida begona va kimsasizdir" deganidek), mazlumligini quyidagicha tasvirlaydi:

*Ilm-u she'rdan shoh-u sulton, lek taqdiriga qul,
O'z elida chekdi g'urbat, zor-u nolon o'zbekim.*

Qasidaning o'sha mazlumlik yillaridan boshlab xalqimiz ruhiga tayanch, joniga

suyanch bo'lib xizmat qilganini alohida ta'kidlash lozim. Hayotimiz davomida yosh-u keksalarimiz tilidan, qisqagina qilib: "Tarixingdir ming asrlar ichra pinhon o'zbekim!" deya yoki:

*Menga Pushkin bir jahon-u menga Bayron bir jahon,
Lek Navoiydek bobom bor, ko'ksim osmon, o'zbekim! –*

Deb qo'llarini havoda silkitib, faxrlanishini ko'p ko'rganmiz. Qasidaning eng mashhur satrlari, xuddi maqolaga o'xshab eng ommalashgan baytlari shular bo'lsa kerak. Erkin Vohidovning ko'plab she'rlarida shohbaytlar hamda shohsatrlar bor. Bu qasidada ham quyidagi baytda bir so'zni bir necha ma'noda qo'llanganini, jarangdorlik va teranlikni ko'ramiz:

*Yig'ladi furqatda Furqat ham muqimiylkda Muqim.
Nolishingdan Hind-u Afg'on qildi afg'on, o'zbekim.*

Bu qasidada, shoirning ilk mashhur she'rlaridan biri milliy turmushidagi choy ichish, choynak va piyola detaliga bog'liq bo'lganidek, o'zbeklar qiyofasini belgilaydigan bosh kiyimga daxldor yana bir shohbayt ham bor:

*Qayga bormay boshda do'ppim, g'oz yurarman gerdayib,
Olam uzra nomi ketgan O'zbekiston, o'zbekim.*

Qadim zamonlardan yigirmanchi asr boshlarigacha Turkiston qavmlari, urug'lar bir-biridan bo'rklari, qalpoqlari bilan farq qilishgan. O'zbekiston, Qozog'iston va boshqa respublikalar tuzilgandan keyin bu saqlanib qoldi; bugunda ham Farg'ona va eski Shosh-u Iloq – Toshkent vodiylari bilan Samarqand-u Buxoro tomonlarda kiyiladigan do'ppilar farqlidir. Shularga suyanib, O'zbekiston va o'zbeklarning qadim Turkiston va Turonga bog'liq tarixlarini, milliy qadriyatlarni she'rga solish "O'zbekim"day obidani yaratish 1968-yilda faqat Erkin Vohidovga nasib etdi, deyish mumkin. Shu o'rinda muallifning yetuk shoirligini, mahorat-u san'atini isbotlagan yana bir asari "Qo'llar" qasidasiga to'xtalish joiz.

*Tanangda kamtarin a'zo bu qo'llardir, bu qo'llardir,
Mudom mehnat uchun paydo bu qo'llardir, bu qo'llardir.*

*Hayot deb yerdan uzsang ham, najot deb ko'kka cho'zsang ham,
Ikki dunyo senga oshno bu qo'llardir, bu qo'llardir.*

*G'azal baxsh etgan olamga, ajal keltirgan odamga,
Bu tig'dir, bu guli ra'no, bu qo'llardir, bu qo'llardir.*

Bundan qirq yil oldin bu qasidani o'qigan she'rxon inson mehnati ulug'langan va odam, vatan, mehnat, hayotning bir butun ekanligini ta'kidlagan, tasvirlagan yuqoridagi shohona baytlardan ko'ngli zavqlangani ma'lum. Mustaqillikdan keyin diniy bilimi ortayotgan kitobxon o'qirgan, u dunyoda qo'llaringiz qilgan amallaringizdan xabar bergay, kabi qutlug' so'zlarni eslashi va bu qasida muallifiga yanada mehr-u hurmati ortishi tabiiydir. "Hayot deb yerdan uzsang ham, najot deb ko'kka cho'zsang ham". "G'azal baxsh etgan olamga, ajal keltirgan odamga" kabi qo'sh qofiyali satrlar esa shoirning san'ati, maqomi yuksakligini ko'rishimiz mumkin.

*Jahon da'vosini etgan, jahondin lek ochiq ketgan
Skandar ilki beda'vo bu qo'llardir, bu qo'llardir, -*

baytida Navoiydan ta'sirlanib, navoiyona satrlar bitsa,

*Diyorim bir sahiy soqiy, Orol unga mayi boqiy,
Sir-u mavjli Amudaryo bu qo'llardir, bu qo'llardir, -*

deya Hofizning mashhur "Bideh soqiy mayi boqiy, ki dar jannatnaxohi yoft" satriga jo'r bayt muallifining, bizningcha Navoiy va Lutfiylar ikki yig'lagan ko'zga o'xshatgan Turkiston daryosini yangi zamonda yurtni obod qilishga kirishgan ikki buyuk qo'lga qiyoslagan.

*Fasohat hammasin tutgan, g'arib o'z sohibin etgan.
Alisherdek buyuk siymo bu qo'llardir, bu qo'llardir, -*

baytini o'qirgan, Navoiyni suygan, unga shaydoligi va sadoqatini uning ijodiy va insoniy fazilatlarini asarlarida, hayotida davom ettirishiga intilishi bilan ko'rsata olgan Erkin Vohidov ham Navoiyning barhayot, navoiyona qalam tutgan qo'llaridan biridir, degan fikr kechadi ko'ngildan. Yigirmanchi yillarda Vadud Mahdum yozganidek, sharq turklarining eng buyuk shoiri Navoiy, g'arb turklarining eng ulug' shoiri Fuzuliydir. Bu ikki ustoz ijodini, ikki qardosh mintaqa shoirlari asarlarini puxta o'rgangan Erkin Vohidovning ikkala ustoz g'azaliga muxammas o'qir ekanmiz, uch

shoirning bir maydonda musobaqa qilayotganiga guvoh bo'lasiz. "Etmasdim" radifli mashhur g'azaliga muxammas bog'larkan, shoir Fuzuliy ruhi bilan o'z ruhini birlashtirishga intiladi, Fuzuliy baytiga ma'nodosh, ohangdosh so'zlardan fuzuliyona satrlar yarata oladiki, xuddi u bir shoir tomonidan yozilgandek, erkinona shavq-u shiddat kamtarlikdagi fuzuliy injaliklari bilan birlashgandek taassurot qoldiradi.

*O'lmasam zor anga, tarki ohu zor etmasmidim,
Ishq koridan kechib bir o'zga kor etmasdim,
Gar junun yor o'lmasa, holimdan or etmasmidim,
Aql yor o'lsaydi, tarki ishq yor etmasmidim,
Ixtiyor o'lsaydi rohat, ixtiyor etmasmidim.*

Navoiyning "beixtiyorlikda bormu manga ixtiyor" degan hayqirig'ida buyuk bashariy fojea, Fuzuliyning "ixtiyor o'lsaydi rohat ixtiyor etmasmidim" degan nolish-u alamida azaldan Odam Ato bolalariga rizq-u nasiba etilgan Hayot, O'lim va bu ikki tushunchaga bog'liq mudhish ixtiyorsizlig-u erksizlik bor. Bu buyuk alam, karamlik, nochorlik dunyosidir. U bilan hatto "isyonkor" Mashrab ham "dardingni qarindosh-u g'amingni padar etdim" deya murosaga kelganday tuyuladi. Bu g'urbat va g'ariblik dunyosi xalq dostonlarimizda chapanisiga "nomard dunyo", Go'ro'g'li kabi qahramonlar tilidan esa jaydari qilib "yolg'onchi" deya bir so'z bilan sifatlangan. She'rda Yuzi va undagi umrlarning faqat fojea va yo'qolish bilan bitadigan oxiriga tutashi ma'lum ixtiyorsizlik fojealari chizilmoqda. Janr talabiga mos o'laroq Erkin Vohidovning ilk satrlari Fuzuliy g'azalining ilk misrasidan kelib chiqib yaratilgan, ya'ni "Aql yor o'lsaydi, tarki ishq yor etmasmidim" satriga "Olmasam zor anga, tarki ohu zor etmasmidim? Ishq koridan kechib bir o'zga kor etmasmidim?" degan pushaymonlik hasrati tutashdir. Oshiq yorga muhtoj bo'lmasam, azoblanib o'tirarmidim; ishq mehnatidan kechib, boshqa ish qilmasmidim; shundayin telba holimdan orlanmasmidim kabi fikrlarni tushunishimiz mumkin. Shoir "Aql yor o'lsaydi, tarki ishq yor etmasdim" satriga tazod bilan "Gar junun yor o'lmasa, holimdan or etmasdim" misrasini bog'laydiki, bu ikki shoirning ikki yondan shovillab oqa kelgan fikr va tuyg'ularining irmog'i bir cho'qqida birlashib, endi yanada kuchliroq guvillab oqayotgandek tuyiladi. Odatda irmoqlar pastga oqadi. Biroq bu she'riy daryo tepaga, yuksaklikka yo'naladi. Erkin Vohidovning:

*Ul ruhi bayzolidin savdolidigimdan qil qiyos,
Ul dili xorolidin shaydolidigan qil qiyos,
Zuhd elin taqvin mug'a oshnolidigimdan qil qiyos, -*

kabi qo'sh qofiyali satrlari Fuzuliyning o'z davridagi ijtimoiy muhitning kufr-u kajraftorligi bois insonlarning buzilayotganini tasvirlagan "Voizin kufrin banim rasvoligimdan qil qiyos! Anda sidq o'lsaydi, ban taqvo shior etmasmidim" degan nochor holatiga, yaxlit fojeali manzara yaratadi. Ya'ni, voizning, ayrim odamlarning kofirligi-yu yolg'onchiligining natijasini mening masxarali ahvolimdan, rasvo bo'lganimdan bilib olaver; ularda to'g'rilig-u sadoqat bo'lsaydi, men ham to'g'ri-yu taqvoli bo'lmasmidim, deydi oshiq Fuzuliy. Kitoblarda erkinlig va dorilomonlikdan safsata sotilgan sobiq sho'roning aldoq davrida yashagan Erkin Vohidov o'z dardini Fuzuliyga dardkashlik tarzida, unga muxammas bog'lash vositasida ustalik bilan ifodalay olgan.

Erkin Vohidov gulzorda sayrayotgan bulbulni shoirga qiyoslaydi. Boz ustiga bulbulning oshiqligi ham bor. Bu oshiqlik diyorga, go'zallika muhabbat bilan uyg'unlashadi. Natijada gullar ham ilhom parisi, ham hasratini yozadigan daftarga aylanadi:

*Gullar menga oshiq bulbulning
She'r daftari bo'lib ko'rindi.*

Erta bahor o'rik guli saylida bo'lganmisiz? Shoxi ko'rinmagan o'rikning gulga burkanganidan lazzat olganmisiz? Bu mo'jizani nimaga o'xshatish mumkin? Faqat shoir qodir bunday qiyosning ta'rifiga:

*Quyoshning etagiga oq bulut bog'lab,
O'rik shoxlarida qovurdi bodroq.*

XULOSA

Erkin Vohidov ijodida Quyosh insonning homiysi, har qadamda insonga xizmat qiladi. Yana bu xizmatim insonga yoqdimikan deb xayol suradi. Yo'qsa o'rik shoxida bodroq qovurardimi? Majnuntolning yomg'ir yuvgan sochlarini tararmidi?

Iqtidorli shoir – Yaratganning millatga yuborgan sovg'asi. Shuning uchun adiblar o'zlari mansub millatga yashashni, poklikni, bir-biriga yaxshilik qilishni, Vatanni va xalqni sevishni o'rgatadi. Shoirimiz: "Men ijodiy mehnatni faol jamoat ishlari bilan qo'shib olib borishdek sharafligini vazifa yukini doimo yelkamda his qilaman. Odamlarga faqat she'ring emas, o'zing ham kerakligingni sezish – bu katta baxt", - deb bejiz yozmagan. Shoir – millat ko'zgusi. U – xalq qalbidagi alamlarni olamga shior qilib e'lon qiluvchi minbar.

REFERENCES

1. Saloydinov, S. Q. (2021). Paxta tozalash zavodlarida energiya sarfini kamaytirishning texnik-iqtisodiy mexanizmini yaratish. "Academic research in educational sciences", 2(9), 886-889. <https://doi.org/10.24412/2181-1385-2021-9-886-889>
2. Saloydinov, S. Q. (2021). Creation of feasibility studies to reduce energy costs in ginneries. "Экономика и социум", 9(88), 147-149.
3. Салойдинов, С. К. (2021). Образовательные кредиты в Узбекистане. "Экономика и социум", 12(91), 470-472.
4. Салойдинов, С. К. (2021). Спрос на рынке дифференцированных продуктов. "Экономика и социум", 12(91), 473-476.
5. Салойдинов, С. К. (2022). С паровой турбиной 471 МВт на Талимарджанской ТЭЦ расчет электрических режимов при максимальной зимней нагрузке. "Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)", Special issue, 116-121.
6. Сардоржон Кодиржон Угли Салойдинов. (2022). Инновационное решение для получения биогаза. "Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)", 2(3), 280-285. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-3-280-285>
7. Astanaliev E. T. O. The Process Of Electronic Document Management In The System Of Railway Automation And Telemechanics //The American Journal of Interdisciplinary Innovations Research. – 2021. – Т. 3. – №. 05. – С. 76-80.
8. Astanaliev E. The formalization of the electronic document in railway automatics and telemechanics on the basis of simulation modeling //European Scholar Journal (ESJ). – Т. 2. – №. 3.
9. OGLI A. E. T. Software for Electronic Document Management System of Technical Documentation on Railway Automation and Telemechanics //JournalNX. – 2021. – Т. 7. – №. 1. – С. 204-209.
10. Astanaliev E. ELECTRONIC MODEL OF TECHNICAL DOCUMENT MANAGEMENT PROCESS //Збірник наукових праць ЛОГОΣ. – 2021.
11. Baratov D., Astanaliev E. Functional Features of the Technical Documentation Control Program //International Journal on Orange Technologies. – 2021. – Т. 3. – №. 1. – С. 7-11.
12. Qobilbek, D. (2021). REFRIGERATOR IN MODERN HEATING POWER STATIONSTECHNICAL WATER WASTE THROUGH RECONSTRUCTION OF

THE TOWERREDUCTION. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 1(3), 96-101.

13. Dadaboyev, Q. Q. O. G. L. (2022). ISSIQLIK ELEKTR STANSIYALARIDA TEXNIK SUV ISROFINI BARATARAF ETISH. *Academic research in educational sciences*, 3(1), 434-440. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-1-41-47>

14. Dadaboyev, Q. Q. (2022). BUG'-GAZ QURILMASI GRADIRNIYALARIDAGI AYLANMA SUV ISROFINI KAMAYTIRISH “Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)”, Special issue, 15-21